

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

RAXIMOV TO‘XTABEK JUMABOYEVICH

**MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT
SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING EKONOMETRIK
MODELLARI**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2025

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
экономических наук**

**Table of Content of the Doctoral Dissertation Abstract (DSc)
in Economic Sciences**

| | |
|--|----|
| Raximov To‘xtabek Jumaboyevich. Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ekonometrik modellari..... | 3 |
| Рахимов Тухтабек Жумабаевич. Эконометрические модели эффективного использования экспортного потенциала в развитии региональной экономики | 31 |
| Rakhimov Tukhtabek Jumabaevich. Econometric models of effective use of export potential in the development of regional economy..... | 71 |
| E’lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works | 75 |

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/27.09.2024.I.55.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

RAXIMOV TO‘XTABEK JUMABOYEVICH

**MINTAQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT
SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING EKONOMETRIK
MODELLARI**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch - 2025

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/Iqt839 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.urdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Rasmiy opponentlar:

Muxitdinov Xudoyor Suyunovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Otajonov Umid Abdullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayorov Piratdin Otaboyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "_____" soat _____: _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "_____" _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil "_____" _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

D. T. Xudayberganov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, DSc., i.f.d., professor

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish mamlakatlar iqtisodiyotini keng taraqqiy qildirish omili bo‘lib, bu borada mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirish bevosita eksport salohiyatidan samarali foydalanish masalalari bilan bog‘liq. Bu o‘z navbatida eksport munosabatlarini samarali amalga oshirish orqali mavjud resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni taqozo qiladi. Eksport ishlab chiqarish sohasini qo‘llab-quvvatlash imkonini beruvchi eng asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, global tovar eksporti qiymati energiya va boshqa xom ashyo narxlari oshishi hisobiga 11 foizga oshib, 24905 mlrd. AQSh dollari tashkil etdi. Ular tarkibida tijorat xizmatlari eksporti 16 foizga o‘tib, 7076 mlrd. AQSh dollari tashkil etdi¹. Shu munosabat bilan mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanish orqali ularning taraqqiyotini ta‘minlaydigan ekonometrik modellarni yaratish dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi.

Jahonda eksport mahsulotlarini ishlab chiqarishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada eksport ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, uning barqaror o‘shishini ta‘minlash va foydalanish usullarini takomillashtirish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, zamonaviy korxonalarda eksportbop va sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish uchun turli usul va vositalardan samarali foydalanilmoqda. Ularni samarali amalga oshirish uchun eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ekonometrik modellarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaralmoqda.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida eksport salohiyatidan samarali foydalanish va uning zamonaviy modellarini yaratishga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qabul qilingan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida 28-maqсад qilib respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda Respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish belgilangan². Mazkur vazifalarni amalga oshirish orqali mintaqalar eksport salohiyatini oshirish respublikamizdagi ustuvor yo‘nalishiga aylanadi. Shunday ekan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi eksport salohiyatini oshirishga bog‘liq. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali mamlakatimiz mintaqalari iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanish modellari shakllantiriladi. Bu borada mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan ekonometrik modellar yaratish muammolarini ilmiy o‘rganish va tahlil qilish davr talabi bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, O‘zbekiston

¹ <https://roscongress.org/materials/obzor-statistiki-mirovoy-torgovli-za-2023-god...>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-apreldagi “Tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-97-son Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 283-son va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi “2022-2026-yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 154-son Qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Hudud va ichki turizmni rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlar, jahonning nufuzli ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari, oliy ta‘lim muassasalarida, jumladan GTAP – Global Trade Analysis Project (Purdue University, Indiana, USA), Torino universiteti (Italiya), Institute for Studies in Industrial Development (ISID, Yangi Dehli, Hindiston), Kiel Jahon iqtisodiyoti instituti, Leybnitsning o‘tish davridagi iqtisodiyotdagi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (Germaniya), CEPII (Fransiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, O‘zbekiston Milliy universiteti, Urganch davlat universiteti, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi iqtisodiy islohotlar markazida (O‘zbekiston Respublikasi) olib borilmoqda.

Global Trade Analysis Project (GTAPb Purdue University, Indiana, USA) tomonidan xalqaro savdo, tarif siyosati, global integratsiya va mahsulot bozorlari bo‘yicha umumiy barqarorlik va o‘rganish modeli taklif etilgan, Torino universitetida (Italiya) firma darajasida eksport-qaror va eksport intensivligi modellari tahlil qilingan, Institute for Studies in Industrial Development tomonidan mamlakatning eksport salohiyati, tashqi savdo, kompetitivlik, sanoat sektorlarining o‘sishi ekonometrik tahlil qilingan (ISID, Yangi Dehli, Hindiston), Kiel Jahon iqtisodiyoti instituti tomonidan global savdo, investitsiyalar va texnologik o‘zgarishlar bo‘yicha empirik modellar usullari; savdo siyosati modellari, eksport bo‘yicha prognozlar va simulyatsiyalar aniqlangan (Germaniya), qishloq xo‘jaligi, Leybnitsning o‘tish davridagi iqtisodiyotdagi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti tomonidan oziq-ovqat sektori, qishloq xo‘jaligida eksportga va o‘zgartirish moslashish masalalari bo‘yicha bozor tadqiqoti olib borilgan (Germaniya), CEPII tomonidan savdo, eksporti, mintaqalarning jahon iqtisodiy integratsiyasiga kirishi, turli ko‘rsatkichlar va modellar samarali tahlil qilingan (Fransiya) tomonidan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv sabablari aniqlangan; mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ekonometrik modellarini shakllantirish bo‘yicha tadqiqotlar

³ Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий-тадқиқотлар шарҳи ва бошқа манбалар асосида ёритилган.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Buxoro davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti tomonidan amalga oshirilgan.

Bugungi kunda eksport salohiyatini to'liq va samarali yo'naltirish mintaqaviy iqtisodiy o'sish, bandlikni oshirish, ichki investitsiyalarni jalb qilish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va tashqi bozorlarda mahsulot va xizmatlar narxini oshirish imkonini beradi. Shu sababli, iqtisodiy siyosatchilar, tadqiqotchilar va mintaqa hokimiyatlari eksportni faollashtirish, infratuzilma, transport-logistika, soliq va moliyaviy rag'batlantirish, valyuta kursi barqarorligi kabi elementlarni modellashtirish dolzarb qolmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ekonometrik modellarini tadqiq qilish yuzasidan xorijiy olimlar Dimitrios Asteriou and Stephen G. Hall, Helian Hu, Do Trong Nghia, Nguyen Hoang Nam, M.V.L.Chan, K.Hou, X.Li, D.S.Mountayn, M.Falk, G.N.Yannaopoulos, Magnus Blomstrom, Ari Kokko, Mixael Getzner, Serhiy Moroz, George Savoii, Suzanna Popa, M.Leibrext, A.Riedlva boshqalarning ilmiy ishlarida keng tadqiq qilingan⁴.

Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanish va uni amalga oshirishga qaratilgan ekonometrik modellarni tadqiq qilish yuzasidan tadqiqotlar MDH mamlakatlardan Y.L.Andreeva, Y.V.Malyshева, A.B.Dajigova, I.A.Karachev, O.R.Nodirov, M.A.Ubaydullaev, Y.P.Alekseeva, R.M.Prytkov, G.I.Nemirova, D.G.Suxix, V.M.Kas, A.O.Tixomirov, Y.A.Tishkina, O.A.Shestakova, N.O.Yakushev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan⁵.

⁴ Dimitrios Asteriou and Stephen G. Hall. Applied econometrics. A modern approach using Eviews and Microfit. Revised edition. Palgrave Macmillan, New York, 2007. – p.140-397.; Helian Hu, Do Trong Nghia, Nguyen Hoang Nam. Determinants of Vietnam's potential for agricultural export trade to Asia-Pacific economic cooperation (APEC) members. // Heliyon, 9 (2023). – p. 2.; Chan, M. W. L., Hou, K., Li, X., & Mountain, D. C. (2014). Foreign direct investment and its determinants: A regional panel causality analysis. The Quarterly Review of Economics and Finance, 54(4), 579–589. <https://doi.org/10.1016/j.qref.2013.07.004>; Falk, M. (2015). The relationship between FDI through backward linkages and technological innovations of local firms: Evidence for emerging economies. Eastern European Economics, 53(5), 424–438. <https://doi.org/10.1080/00128775.2015.1065507>; Yannopoulos, G.N. (1990), "Foreign Direct Investment and European Integration: The Evidence from the Formative Years of the European Community", Journal of Common Market Studies, Vol. 28, pp. 235-59.; Blomstrom, Magnus & Kokko, Ari. (1997). Regional Integration and Foreign Direct Investment: A Conceptual Framework and Three Cases.; Getzner, Michael & Moroz, Serhiy. (2020). Regional development and foreign direct investment in transition countries: a case-study for regions in Ukraine. Post-Communist Economies. 32. 1-20. 10.1080/14631377.2020.1745564.; Savoii, Gheorghe & Popa, Suzana. (2012). Foreign direct investment – an econometric modelling.; Leibrext M., Riedl A. Modeling FDI based on a spatially augmented gravity model: Evidence for Central and Eastern European Countries //e Journal of International Trade & Economic Development. — 2012. — Vol. 23, iss. 8. — P. 1206–1237. — doi: 10.1080/09638199.2013.861006

⁵ Андреева Е.Л., Малышева Е.В. Теоретические подходы к исследованию экспортного потенциала национальной экономики. // Журнал экономической теории, 2020, Т.17, №2. – С. 266.; Дажигова А.Б. Экспортный потенциал как системообразующий элемент экономического развития страны. // Вестник магистратуры, 2022, №5-1 (128). – С. 60.; Карачев И.А. Определение категории «экспортный потенциал предприятия» в контексте формирования региональной модели ВЭД. // Вестник финансового университета, 4, 2015. – С. 25.; Нодиров О.Р., Убайдуллаев М.А., Алексеева Ю.П. Экспортный потенциал территории: сущность и современное состояние. // Экономика и общество, №7-8 (12), Июль-Август, 2019. – с. 16.; Прытков Р.М., Немирова Г.И. Формирование и развитие экспортного потенциала региона. // Вестник ОГУ №13 (132), декабрь, 2011. – С. 387.; Сухих Д.Г., Кац В.М. Методики оценки экспортного потенциала предприятия. Российский опыт. // Вестник науки Сибири, 2015, №2 (17). – С. 62-63.; Тихомиров А.О. Экспортный потенциал: оценка формирования и использования. // Вестник полочского государственного университета, 2011. – с. 46. elib.psu.by; Тишкина Е.А. Современные тенденции экспорта КНР. // Российский внешнеэкономический вестник, №12 (Декабрь), 2009. – С. 19.; Шестакова О. А. Методические аспекты оценки экспортного потенциала предприятия/О. А. Шестакова // Вестник НТУ «ХПИ». –

O'zbekistonda mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ekonometrik modellarining turli yo'nalishlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar S.S.G'ulomov, B.R.Ruzmetov, T.D.Doschanov, I.S.Abdullayev, M.Z.Boydadayev, R.N.Jiyamuratov, F.K.Sotvoldiyev va boshqa qator iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan⁶.

Mazkur ilmiy tadqiqotlarda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ekonometrik modellari, asosan, uning rivojlanish holati va tahlillariga unga turlicha yondashishgan. Iqtisodiyotni rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishga bag'ishlangan tadqiqotlarning ko'pligiga qaramay, hozirgacha ushbu sohaga mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ekonometrik modellari va ularning tadbiqu yetarli darajada amalga oshirilmagan. Mazkur holatlar tanlangan dissertatsiya mavzusining dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ekonometrik modellarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mintaqa eksport salohiyatini oshirishning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish;
eksport salohiyatidan samarali foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish;

eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ilg'or xorijiy davlatlar tajribalari va mexanizmlarini ilmiy asoslash;

mintaqa eksport salohiyatidan foydalanishning hozirgi holatini tahlil qilish;

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda eksport salohiyati samaradorligini oshirish yuzasidan tadqiqotlar olib borish;

mintaqa eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini ekonometrik baholash;

mamlakat eksport salohiyatidan samarali foydalanish mezonlari va ko'rsatkichlarini baholashni amalga oshirish;

2013. – № 7 (981) – С. 173–181.; Якушев Н. О. Теоретические аспекты развития экспортного потенциала регионов. // Молодой ученый, 2015, №11. – С. 1046-1051.

⁶ Гулямов С.С., Абдуллаев А.М. и др. Прогнозирование и моделирование национальной экономики. / Под ред.акад. С.С. Гулямова. – Т.: Фан ва технология, 2007; Шодиев Т.Ш. Проблемы моделирования развития сельского хозяйства (на примере Узбекистана): дис. док. экон. наук.-Т.: ТГЭУ, 1988.-380с; Рuzметов Б.Р. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дисс. ...док. эк. наук. - Т.: 1998. – 39 с.; Досчанов Т.Д. Экономико-экологические основы производства и применения продукции химической промышленности в АПК. дисс. на соис. докт. экон. наук. Т.: 1990. – 405 с.; Абдуллаев И.С. Минтақавий иқтисодий тизимни оптимал тартибга солишниг механизмлари тақомиллаштириш. иқт.фан.док. автореферати. – Т.: ТДИУ. 2017. – 66 б., Р.Х.Алимов ва бошқ. Корхонларда инвестициялардан самарали фойдаланиш жараёнларини эконометрик моделлаштириш. Ўқув қўлланма-Т.: “Fan va texnologiya”, 2014; 104 бет.; Бойдадаев М.З. Тадбиркорлик фаолиятида экспорт салоҳиятини оширишда тўқимачилик корхоналарининг ўрни. // International scientific and practical conference “Improving Uzbekistan’s position in international ratings and indexes: theory, practice and strategy”. – 1028 б.; Жиямуратов Р.Н. Эркин иқтисодий ҳудуднинг экспорт салоҳиятини оширишниг назарий масалалари. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy-elektron jurnali, 6/2023, noyabr-dekabr, (№00068). – 102 б.; Сотволдиев Ф.К. Ўзбекистон Республикаси ҳудудларининг экспорт салоҳияти. // Иқтисодийта инновациялар, №6, 2021. – 97 б.

iqtisodiyot tarmoqlari eksport salohiyatini taqqoslama baholash uslubiyatini takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish;

eksport salohiyatidan samarali foydalanishni ekonometrik modellashtirishning metodikasini ishlab chiqishni amalga oshirish;

mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish;

YaIM o'sishiga eksport hajmining ta'sirini ekonometrik modellashtirishni amalga oshirish;

eksport salohitidan samarali foydalanishning ko'p senariyli prognoz modellarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti Xorazm viloyati mintaqasi iqtisodiyoti tarmoqlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ekonometrik modellarini tadqiq qilish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi

Tadqiqot usullari sifatida dissertatsiyada mantiqiy tahlil, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, ekspert baholash usuli, statistik tahlil, maqsadli so'rovnomalar, SWOT-tahlil, monografik kuzatuv, statistik guruhlash hamda ekonometrik modellashtirish usullaridan samarali foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintaqada ishlab chiqarish, tabiiy, mehnat va intellektual resurslar; maxsulot sifati, innovatsion texnologiyalar; diversifikatsiya va barqarorlik yo'nalishlariga asoslangan qo'shimcha iqtisodiy o'sishning SIEM (Systematic innovative export model) modeli taklif etilgan;

mintaqada eksportyor korxonalar faoliyatini raqamli monitoringlashning barqaror (0,8-1), turg'un (0,5-0,7) va beqaror (0,1-0,4) reyting mezonlari asosida eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish usuli takomillashtirilgan;

hududlararo aholi va korxonalar migratsiyasi hamda ishlab chiqarish oqimlari ta'sirida shakllanayotgan transport-logistika infratuzilasini rivojlantirish asosida eksport salohiyatini oshirishning $I = G * \frac{Q_i^{\alpha_1} * Q_j^{\alpha_2}}{D_{ij}^2} * e^{\varepsilon_{ij}}$ gravitatsion modeli taklif etilgan;

Spirman darajali korrelyatsiya koeffitsiyentlari (ks) va Fexner tasodiflarini (kf) birlashtirish yo'li bilan mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanish miqyosi (Rm) va sifat (Rq) darajalarini aniqlash $R_m(R_q) = \frac{(1+k_s)*(1+k_f)}{2_j}$ modeli taklif qilingan;

mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanishda YaHM, eksport ko'rsatkichlarining 2030-yilga qadar prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

hudud resurslariga asoslangan eksport yo'nalishlari asosida mintaqaning iqtisodiy o'sish sur'atlarida eksportning ulushi aniqlangan;

beqaror va turg'un toifadagi korxonalar uchun qo'llab-quvvatlash dasturlari ishlab chiqilib, shu orqali umumiy eksport samaradorligining o'sish yo'nalishlari taklif qilingan;

eksport yo'nalishlarining iqtisodiy samaradorligi orqali mintaqalararo ishlab chiqarish va eksport kooperatsiyasi darajasi aniqlangan;

mintaqalar kesimida eksportga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlik orqali har bir hudud kesimida eksport salohiyatidan foydalanishning miqdoriy va sifatliy baholash usullari taklif qilingan;

mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining uzoq muddatli maqsadli prognoz parametrlari va variantlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida qo'llanilgan metodologik yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar orqali jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi va uning hududiy boshqarmasi ma'lumotlari va internet manbalari, davriy hisobotlaridan olinganligi hamda tegishli xulosa va takliflarning amaliyotda sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati Xorazm viloyati mintasi iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ekonometrik modellari bo'yicha olingan ilmiy xulosalardan mazkur yo'nalishga oid mavjud uslubiyotni takomillashtirishda, tashkiliy-huquqiy, institutsional va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan mamlakatimiz va hududlarda eksport sohasini barqaror rivojlantirishda, mavjud eksport salohiyatidan samarali foydalanishda, shu orqali belgilangan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor vazifalarni hal qilishda, shuningdek "Xalqaro savdo", "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar", "Ekonometrika asoslari" va "Mintaqaviy iqtisodiyot" kabi fanlardan o'quv dasturlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda va o'qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ekonometrik modellarini tadqiq qilish bo'yicha olingan natijalar asosida

mintaqada ishlab chiqarish, tabiiy, mehnat va intellektual resurslar; maxsulot sifati, innovatsion texnologiyalar; diversifikatsiya va barqarorlik yo'nalishlariga asoslangan qo'shimcha iqtisodiy o'sishning SIEM (Systematic innovative export model) modeli bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimi mahkamasi faoliyatiga joriy etilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 09-oktabrdagi 02-0077/2-son ma'lumotnomasi). Natijada, mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning nazariy konsepsiya va yondashuvlarini joriy qilish imkoni yaratilgan;

mintaqada eksportyor korxonalar faoliyatini raqamli monitoringlashning barqaror (0,8-1), turg'un (0,5-0,7) va beqaror (0,1-0,4) reyting mezonlari asosida eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish usuli bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimi mahkamasi faoliyatiga joriy etilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 09-oktabrdagi 02-0077/2-son ma'lumotnomasi). Natijada, mintaqada

eksportyor korxonalar faoliyatini taraqqiy qildirishning tezkor o'sish rejasini yaratilishiga erishilgan.

hududlararo aholi va korxonalar migratsiyasi hamda ishlab chiqarish oqimlari ta'sirida shakllanayotgan transport-logistika infratuzilasini rivojlantirish asosida eksport salohiyatini oshirishning $I = G * \frac{Q_i^{\alpha_1} * Q_j^{\alpha_2}}{D_{ij}^2} * e^{\varepsilon_{ij}}$ gravitatsion modeli bo'yicha

taklif Xorazm viloyati hokimi mahkamasi faoliyatiga joriy etilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 09-oktabrdagi 02-0077/2-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotda qo'llash natijasida viloyatda transport-logistika infratuzilasini rivojlantirish asosida eksport salohiyatini o'rtacha 5-7 foizga oshirishga olib kelgan;

Spirman darajali korrelyatsiya koeffitsiyentlari (ks) va Fexner tasodiflarini (kf) birlashtirish yo'li bilan mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanish miqyosi (Rm) va sifat (Rq) darajalarini aniqlash $R_m(R_q) = \frac{(1+k_s)*(1+k_f)}{2_j}$ modeli bo'yicha taklif

Xorazm viloyati hokimi mahkamasi faoliyatiga joriy etilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 09-oktabrdagi 02-0077/2-son ma'lumotnomasi). Natijada, viloyat tuman va shaharlarida eksport salohiyatidan samarali foydalanish darajalarini guruhlash va ixtisoslashtirish imkoni yaratilgan;

mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanishda YaHM, eksport ko'rsatkichlarining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz qiymatlari bo'yicha taklif Xorazm viloyati hokimi mahkamasi faoliyatiga joriy etilgan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 09-oktabrdagi 02-0077/2-son ma'lumotnomasi). Mazkur maqsadli parametrlarni amalga oshirilishi natijasida mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanish hisobiga yangi ish o'rinlarini tashkil etilishi, shuningdek aholi daromadlari va iqtisodiyot tarmoqlarini yuqori sur'atda rivojlanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza shaklida taqdim etilib, aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta yakka mualliflikda monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan 13 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismlaridan iborat. Dissertatsiya hajmi jami 206 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti ko'rsatilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari mosligi asoslangan, ilmiy ishning ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy natijadorligi, tadqiqotni amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi, ishning tarkibiy tuzilishiga oid ma'lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi “**Mintaqada eksport salohiyatidan samarali foydalanishning nazariy-uslubiy asoslari**” deb nomlanib, unda mintaqa eksport salohiyatini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari, eksport salohiyatidan samarali foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari va eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalari va mexanizmlari o‘rganilgan.

Eksport tovarlarni yoki kapitalni chet elga eksport qilish hisoblanadi. Eksport obyekti tovarlar va xizmatlar bo‘lishi mumkin. Eksport subyektlari turli mulkchilik shaklidagi tijorat korxonalari, jismoniy shaxslar, davlat va notijorat tashkilotlari bo‘lishi mumkin. Eksport salohiyati barcha darajadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarga xosdir. Ya‘ni, korxonalar, sanoat, mamlakat ichidagi mintaqalar, milliy iqtisodiyot, bir nechta davlatlarning guruhlari tashqi savdoni, birinchi navbatda eksportni rivojlantirish orqali amalga oshiradilar. Eksport salohiyati subyektda mavjud bo‘lgan resurslarning (ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat va boshqalar) miqdoriy, sifat jihatidan, tarkibiy holati bilan tavsiflanadi.


Eksport salohiyati - ma‘lum bir mamlakatning mavjud yoki ishlab chiqarilgan resurslari va mahsulotlarini eksport qilish potensial qobiliyatidir⁷. “Eksport salohiyati” tushunchasi ko‘proq amaliy foydalanishga qaratilgan. Ushbu ta‘rif iqtisodiyot tarmoqlari ishlab chiqarish hajmining tashqi bozorlarda sotish bilan mutanosibligiga asoslanadi. Eksport salohiyatining mohiyati va asosiy omillari jahon olimlarining eksport salohiyatini tushunishga yondashuvlar haqidagi fikrlari asosida aniqlanadi⁸. Ya‘ni, yalpi ichki mahsulot hajmi va sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohasining iqtisodiyotdagi ulushi, shuningdek sanoat korxonalari eksport salohiyati va uning iqtisodiy rivojlanishdagi roli o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi.

Eksport salohiyatini rivojlantirish omili sifatida korxonalar hamkorligi birinchi marta ko‘rib chiqiladi. Ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish bo‘yicha kompaniyalar o‘rtasidagi hamkorlik ko‘rib chiqilgan. Ammo, hamkorlik muayyan loyihani amalga oshirishda hamkorlikni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, muayyan eksport mahsulotini ishlab chiqarish maqsadida korxonalar birlashmasi hamkorlikning eng muvaffaqiyatli turi, deyish mumkin. Kooperatsiyadan ma‘lum muddat va muayyan loyiha uchun foydalanish ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ancha samarali eksport qilish imkonini beradi.

Milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni jahon takror ishlab chiqarish jarayoniga, shuningdek, jahon savdo hamkorligi tizimiga kiritishning harakatlantiruvchi kuchi turli darajadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyati hisoblanadi. Bu borada mintaqaning eksport salohiyati tarkibi quyidagicha ajralib turadi (1-rasm).

⁷ Тихомиров А.О. Экспортный потенциал: оценка формирования и использования. // Вестник полоцкого государственного университета, 2011. – с. 46. elib.psu.by

⁸ Оруджова М.С., Асадов З.Р., Искендеров Р.К. Роль экспортного потенциала промышленных предприятий в развитии экономики и методы его расчета. // [Финансовый менеджмент](#), №, 2024. – с. 1-2.



1-rasm. Mintaqaning eksport salohiyati tarkibi⁹

Shuningdek, eksport salohiyati, to‘g‘ridan-to‘g‘ri korxonalar, korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatini, xususan, maqsadli tashqi savdo bozorlariga chiqishdan iborat bo‘lgan eksport faoliyatini amalga oshirishga tayyorligi, qobiliyati sifatida belgilanadi. Eksport salohiyati korxonaning tashqi bozorga chiqish strategiyasini ishlab chiqish uchun asosdir. Eksport salohiyatining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar bilvosita ta’sir qiladi va korxonaning tashqi bozorga chiqish strategiyasini shakllantirish tartibini va korxonaning tashqi bozorda vakillik darajasini belgilaydi.

So‘nggi yillarda jahon miqyosida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligiga erishish uchun yetakchi tarmoqlarni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining eksport salohiyatini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyati uning jahon bozorlarida raqobatbardoshligi ko‘rsatkichi bo‘lib ko‘rinadi hamda mavjud resurslar yoki yaratilgan tovarlar va xizmatlarni ularga eksport qilish


⁹ Muallif ishlanmasi.

qobiliyatini aks ettiradi. O'z navbatida, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonlari uning o'sishining strategik muhim jihatini tashkil etadi. Mintaqaning eksport salohiyatining an'anaviy xususiyati hududdan tashqari bozorning sifati va raqobatbardoshligini ta'minlaydigan mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish qobiliyati sifatida belgilanishi mumkin. Iqtisodiy ma'noda mintaqaning eksport salohiyati mavjud hududiy sanoat tuzilmasini hisobga olgan holda jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan tovarlar va xizmatlar eksporti hajmi sifatida belgilanadi.

Eksport salohiyatini oshirish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Eksport salohiyatini rivojlantirishning har bir omili bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish korxonaning raqobatbardosh mavqeini oshirishga, korxonada mahsulotlarini maqsadli tashqi bozorda samarali ilgari surishga imkon beradi. Ya'ni, ushbu omillar eksport salohiyatining rivojlanishiga ta'sir qiladi hamda korxonaning raqobatbardoshligini oshirishga qodir bo'ladilar.

Darhaqiqat, eksport salohiyatidan samarali foydalanish mavjud imkoniyatlarga asoslanadi va qator o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Ya'ni, potensial mahsulot ishlab chiqariladigan barcha imkoniyatlar, vositalar, resurslar, jumladan o'sish potentsiali ta'siri majmuini belgilaydi. Ya'ni, eksport mahsulot yoki mahsulotni tashqi iste'molchilarga sotishga asoslanadi. Aniqrog'i, eksport salohiyati xalqaro savdoning rivojlanishini belgilab beradi.

Fikrimizcha, eksport salohiyatidan foydalanish quyidagi dastaklarni o'z ichiga oladi (2-rasm):



2-rasm. Eksport salohiyatidan foydalanish quyidagi dastaklari¹⁰

Eksport salohiyatiga ega bo'lgan, uni samarali boshqaradigan, uni rivojlantiradigan korxonalar yuqori raqobatbardosh globallashtirilgan jahon bozorida zamonaviy iqtisodiy sharoitda yanada barqaror va raqobatbardosh bo'ladi. Eksport salohiyatidan samarali foydalanish korxonaga xalqaro savdoda, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishdan qo'shimcha foyda olish imkonini beradi. Savdo bozorlarini kengaytirish, xorijiy sheriklar bilan yangi savdo va kooperatsiya aloqalarini yo'lga qo'yish mahsuldorlikni oshirish, ishlab chiqarish va sotish hajmini oshirish va foyda keltiradi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy islohotlarning yo'nalishlari mamlakatlar eksport salohiyatini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Bu muammoni hal etish iqtisodiy islohotlarning umumiy va oraliq

¹⁰ Manba: Muallif ishlanmasi.

maqsadlariga erishishning kaliti bo‘lib xizmat qiladi. Bu borada eksport salohiyatini baholashda nisbiy afzalliklar muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Agar dastlabki bosqichlarda yer, mehnat, kapital kabi ishlab chiqarish omillari birinchi o‘ringa chiqqan bo‘lsa, hozirgi bosqichda esa mamlakatning kuchsiz omillarini rag‘batlantirish uchun iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu borada dissertatsiyada eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalari va mexanizmlari tadqiq qilindi va O‘zbekiston sharoitida qo‘llash yuzasidan e‘tiborga molik takliflar ishlab chiqildi. Ushbu tajribalar eksport sohasidagi mavjud tendensiyalarni aniqlashda keng qo‘llaniladi. Jahon mamlakatlarda eksport salohiyatini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Bu borada eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan AQSh, Rossiya, Yaponiya, Hindiston va Xitoy mamlakatlarining tajribalari o‘rganildi.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi “**Mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanish va taxlil qilish**” deb nomlanib, unda mintaqa eksport salohiyatidan foydalanishning hozirgi holati, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda eksport salohiyati samaradorligini oshirish va mintaqa eksport salohiyatini oshirishga ta’sir qiluvchi omillar tahlili amalga oshirilgan.

Eksport salohiyatini rivojlantirish murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida mintaqa faoliyatining barcha bosqichlarida ichki iqtisodiy va tashqi iqtisodiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan keng qamrovli jarayon bo‘lib hisoblanadi¹¹. Eksport faoliyatini mintaqaviy darajaga kengaytirish jarayonlari tegishli mintaqaviy siyosatni ishlab chiqishni taqozo etadi. Masalan, o‘tish davrida davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishi bilan bir qatorda hududlarning eksport salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish ustidan vertikal nazorat eksport faoliyatini erkinlashtirish va xo‘jalik yurituvchi subektlarning operativ-iqtisodiy mustaqilligi o‘rnini egalladi.

Mintaqalarda davlat tomonidan qabul qilingan eksport sohasini rivojlantirish sohasidagi bir qator hujjatlar bevosita eksport mahsulotlari, xom ashyo va bozorlar faoliyatini tartibga solish bo‘yicha davlat dasturi sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, tendensiyalar va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni hisobga olgan holda mamlakat iqtisodiyotining eksport tarmog‘ini rivojlantirish sur‘atlarini jadallashtirish uchun global ustuvorliklarni aniqlashga yangi yondashuvlar, davlat tomonidan tartibga solish, jumladan, rag‘batlantirish choralari, shakllari va mexanizmlari samaradorligini oshirish, fan-texnika yutuqlarini rivojlantirishga, investitsion jozibadorlikni, eksport salohiyatini, mahsulotlar bilan ta’minlashni darajasini oshirishga, yuqori texnologiyali va bilim talab qiladigan faoliyatga qaramlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Mintaqaning eksport salohiyatining tuzilishi tashqi bozorga raqobatbardosh mahsulotlar bilan chiqish imkoniyati va amalga oshirish imkoniyatini aks ettiradi¹². Barcha mavjud eksport salohiyati imkoniyatlari jami hududning maksimal imkoniyatlari va o‘z mahsulotlarini tashqi bozorda sotish orqali shakllanadi. Eksport salohiyati tarkibida ushbu unsur ustunlik qiladi. Chunki iste’molchi tendensiyasi uzoq vaqt davomida jahon bozorida hukmronlik qiladi. Shu bois, tovarlarni ichki va xalqaro

¹¹ www.produccioncientificaluz.org

¹² Соромотина Е.Ю. Анализ динамики экспортных операций России // сборник материалов XVIII Международной научно-практической конференции, 2018. – с.13.

miqyosda sotish eng muhim masala bo‘lib hisoblanadi. Shularga asoslangan holda Xorazm viloyati mintaqasida eksport mahsulotlari ishlab chiqarish masalasi bevosita eksport salohiyatidan foydalanishning hozirgi holatini belgilaydi. Bu bevosita viloyatda eksport mahsulotlari ishlab chiqarish holatini aks ettiradi (1-jadval).

1-jadval

Xorazm viloyati hududlarida 2010-2023 yillarda eksport mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, ming AQSh dollarida¹³


| Hududlar nomi | 2010-y. | 2011-y. | 2012-y. | 2013-y. | 2014-y. | 2015-y. | 2016-y. | 2017-y. | 2018-y. | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2023-y. |
|--------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|---------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| Xorazm viloyati bo'yicha | 156176,8 | 206165,2 | 154975,7 | 198113,7 | 139379,9 | 111423,9 | 95574,5 | 122742,4 | 102064,6 | 146897,9 | 169566,2 | 231248,0 | 247029,0 | 304215,7 |
| Urganch shahri | 7098,6 | 7037,6 | 6211,8 | 8124,7 | 9202,2 | 7299,1 | 9935,8 | 15826,5 | 19040,5 | 32516,5 | 33481,4 | 30337,5 | 30102,1 | 31943,2 |
| Xiva shahri | - | - | - | - | - | - | - | 8909,5 | 8805,8 | 11924,2 | 10164,9 | 11687,6 | 13627,8 | 16848,0 |
| Bog'ot tumani | 26014,1 | 29519,9 | 21663,5 | 16256,2 | 10732,6 | 11763,3 | 9872,6 | 19396,8 | 12245,8 | 13116,0 | 21498,5 | 24812,4 | 33867,1 | 23765,5 |
| Gurlan tumani | 22268,1 | 30751,5 | 21375,1 | 18066,7 | 13490,3 | 8443,6 | 9589,1 | 9975,9 | 9734,3 | 7112,5 | 8471,8 | 11409,4 | 9951,3 | 23745,0 |
| Qo'shko'pir tumani | 14062,6 | 16789,2 | 12042,7 | 12694,3 | 11392,3 | 7890,6 | 6284,3 | 5881,7 | 2789,0 | 5930,1 | 8006,2 | 11054,4 | 6585,3 | 8454,9 |
| Urganch tumani | 673,9 | 3175,5 | 4735,7 | 5144,3 | 6226,6 | 4685,0 | 4428,6 | 4704,1 | 8222,0 | 14417,0 | 9749,7 | 25960,9 | 22642,1 | 26084,5 |
| Hazorasp tumani | 15170,1 | 16529,1 | 14391,8 | 13599,7 | 12181,7 | 7699,1 | 7234,0 | 7160,1 | 4149,6 | 5454,7 | 12184,5 | 15794,8 | 17747,6 | 28882,8 |
| Tuproqqal'a tumani | - | - | - | - | - | - | - | - | - | - | 1743,5 | 6233,1 | 8909,5 | 15907,0 |
| Xonqa tumani | 25818,8 | 40027,5 | 33390,2 | 30584,5 | 31995,2 | 19786,9 | 10333,4 | 10369,1 | 4161,5 | 12471,5 | 20564,3 | 25580,6 | 27643,9 | 37138,0 |
| Xiva tumani | 1566,9 | 2101,1 | 2464,0 | 2521,5 | 2727,6 | 2522,2 | 5450,9 | 442,2 | 3382,8 | 10389,6 | 10750,8 | 15557,5 | 21586,8 | 14316,6 |
| Shovot tumani | 12184,5 | 17641,9 | 14604,4 | 15939,8 | 12673,3 | 17568,3 | 18231,1 | 25277,8 | 23826,6 | 7516,4 | 5308,3 | 6878,0 | 26405,9 | 28923,8 |
| Yangi-ariq tumani | 16301,4 | 26041,8 | 13887,9 | 19168,1 | 16816,2 | 14480,8 | 7753,6 | 9117,2 | 2898,3 | 5100,9 | 5618,7 | 13768,9 | 15102,6 | 20627,1 |
| Yangibozor tumani | 13756,9 | 16443,4 | 10077,3 | 12713,5 | 11895,6 | 9233,8 | 6450,2 | 5681,6 | 2806,6 | 20897,7 | 22023,7 | 32141,7 | 12856,9 | 27579,5 |

Ushbu 1-jadvalga asosan, Xorazm viloyati bo'yicha eksport mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2010-yilda 156176,8 ming AQSh dollariga teng bo'lsa-da, 2023-yilda esa 304215,7 ming AQSh dollarini tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlarida, xususan, Urganch shahrida 7098,6 (31943,2), Bog'ot tumanida 26014,1 (23765,5), Gurlan tumanida 22268,1 (23745,0), Qo'shko'pir tumanida 14062,6 (8454,9), Urganch tumanida 673,9 (26084,5), Hazorasp tumanida 15170,1 (28882,8), Xonqa tumanida 25818,8 (37138,0), Xiva tumanida 1566,9 (14316,6), Shovot tumanida 12184,5 (28923,8), Yangiariq tumanida 16301,4 (20627,1), Yangibozor tumanida 13756,9 (27579,5) AQSh dollariga teng bo'lgan. 2023 yilda Xiva shahrida esa 16848,0 va Tuproqqal'a tumanida 15907,0 AQSh dollariga teng bo'lgan.

Eksport faoliyati korxonalar iqtisodiy faoliyatining bir qismi sifatida rivojlanib bormoqda. Tadbirkorlik subektlarining faoliyatning ushbu sohasiga qiziqishi ortib borayotgani milliy chegaralar doirasida bozorni rivojlantirish imkoniyatlarining kamayishi va istiqbolli tashqi bozorlarni o'zlashtirish hisobiga moliyaviy natijalarning o'sish istiqbollari bilan bog'liq bo'ladi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda eksport faoliyatini kengaytirish mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki, xalqaro hamkorlar bilan o'zaro hamkorlik natijalaridan foydalanish mahalliy ishlab chiqaruvchilarga faoliyatning sifat jihatidan yangi darajasiga chiqish va ularning faoliyati samaradorligini oshirish imkonini beradi.

¹³ <https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2>

Mintaqada eksport salohiyati sanoat ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatining barcha jabhalarini, jumladan uning ichki va tashqi iqtisodiy faoliyatini qamrab oluvchi xo‘jalik jarayonlari tizimiga asoslangan murakkab majmua bo‘lib qaraladi. Shu munosabat bilan eksport salohiyatini rivojlantirish jarayonini har tomonlama o‘rganish mintaqaviy iqtisodiyoning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha xorij va mamlakatimiz olimlari, amaliyotchilarning mumtoz va zamonaviy asarlarini o‘rganishga asoslanadi. Eksport salohiyatini rivojlantirishning dastlabki bosqichi eksport bozori turini (rivojlangan yoki istiqbolli) aniqlashdan iborat bo‘ladi. Keyinchalik, eksport mahsuloti turini (mavjud yoki yangi) aniqlash kerak. Tovarlar va bozorlarni u yoki bu turga ajratish ikkilamchi va birlamchi ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi. Bu esa rivojlangan bozorlar va mavjud mahsulotlar yo‘nalishlari uchun yirik miqdordagi ma’lumotlarning mavjudligini anglatadi. Mintaqada “istiqbolli bozor” va “yangi mahsulot” yo‘nalishlari kerakli ma’lumotlarni kamroq miqdorda ochib beradi. Agar ikkinchi darajali ma’lumot etishmasa, bu holatda asosiy ma’lumotlarni olishga murojaat qilish kerak. Shunga asosan, mintaqada bozorlar va mahsulotlar to‘g‘risida yetarli miqdorda zarur ma’lumotlarni olish orqali sanoat korxonasining yagona eksport salohiyatini rivojlantirish yo‘nalishini ishonch bilan aniqlash mumkin. Natijada, eksport salohiyatini rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlari tanlanadi (3-rasm).



3-rasm. Eksport salohiyati samaradorligini oshirish yo‘nalishlari¹⁴

Ushbu 3-rasmga asosan, “rivojlangan eksport bozori - mavjud mahsulot” yo‘nalishi eng yuqori ma’lumotga ega bo‘ladi. “Istiqbolli eksport bozori - yangi mahsulot” yo‘nalishi esa bozor va mahsulot haqida minimal miqdoriy ma’lumotlarga ega bo‘lishni anglatadi. Ma’lumotlarning to‘liqligiga qarab eksport salohiyati tipologiyasining taqdim etishdan kelib chiqadigan bo‘lsak, “rivojlangan eksport bozori - yangi eksport mahsuloti” yo‘nalishi “istiqbolli eksport bozori - mavjud mahsulot” yo‘nalishiga qaraganda miqdoriy ma’lumotlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Amalda esa, bu sohalarida ma’lumotlar miqdori bir xil bo‘lishi mumkin.

Eksport salohiyatini oshirish davlatning ustuvor yo‘nalishi sifatida ko‘pgina tadqiqotlar olib borishni taqozo qiladi. Bu borada xorijlik olimlarning ko‘plab tadqiqotlari iqtisodiyot tarmoqlaridagi eksport salohiyatiga bag‘ishlangan bo‘lib, bu davlat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim omili bo‘lib hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sharoitida eksport salohiyatini ifodalovchi eksport oqimlari hajmi

¹⁴ Muallif ishlanmasi

va tarkibi mintaqa iqtisodiy rivojlanish darajasi ko'rsatkichidir. Bu esa mintaqa eksport salohiyatining hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda tashqi bozorda tovarlar va xizmatlarni sotish uchun raqobatbardosh mahsulotlar eksportining ruxsat etilgan eng katta hajmini anglatadi.

Mintaqada xorijiy sarmoyani jalb qilish eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Ayrim mamlakatlarning hozirgi iqtisodiy rivojlanishida va boshqa iqtisodiy inqirozlarda xorijiy investitsiyalar muhim o'rin tutadi. Dunyoda xorijiy investitsiyalar hajmi tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Bu esa jahon iqtisodiyotida xalqaro ishlab chiqarish va xalqaro mehnat taqsimotining rolini oshirmoqda. Xorijiy sarmoyalarning korxonalarining eksport faoliyatiga ta'sirini chetlab o'tib bo'lmaydi. Chunki, investitsiyalar hisobiga qishloq xo'jaligi korxonalari texnik va texnologik bazani yangilashi, mahsulot raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Mavjud omillar mintaqa eksport salohiyatini oshirish omili bo'lib qaraladi. Omillar mintaqa eksport salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishda davlat tomonidan tartibga solish unsurlarini ta'minlaydigan jarayonlarga oidligi va tasnifini tavsiflaydi¹⁵. Mintaqaning eksport salohiyati korxonalarining samarali faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Chunki, korxonaning eksport salohiyatini rivojlantirish murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib qaraladi. Ular o'z mahsulotlarini diversifikatsiyalashi mumkin. Hozirgi kunda iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlari eksportini diversifikatsiyalashni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish choralari ko'rilmoqda¹⁶. Shular bilan birgalikda, tashqi bozorlarning berilgan segmentlarida eksport salohiyatini shakllantirish va amalga oshirish samaradorligi e'tiborga olinadi. Faqat o'zaro bog'liq omillarni to'liq tizimli hisobga olish xalqaro bozorga kiradigan raqobatbardosh ustunliklarni yaratib beradi. Eksport salohiyatini shakllantirish va amalga oshirish samaradorligini oshirish jarayoni quyidagi omillar bilan tavsiflanadi (4-rasm).

¹⁵ Якушев Н. О. Теоретические аспекты развития экспортного потенциала регионов. // Молодой ученый, 2015, №11. – С. 1046-1051.

¹⁶ <https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/export>



4-rasm. Eksport salohiyatini shakllantirish va amalga oshirish samaradorligini oshiruvchi omillar¹⁷

Ushbu 4-rasmga asosan, aniqlangan omillar bilan bir qatorda eksport salohiyatini quyidagi yo'llar bilan rivojlantirish mumkin:

birinchidan, intellektual mulk mahsulotlarini ishlab chiqarish va yaqin va uzoq xorij bozorlariga yetkazib berishning jismoniy hajmini oshirish;

ikkinchidan, mahsulot ishlab chiqarish va eksportga sotish xarajatlarini kamaytirish;

uchinchidan, xorijda sotishdan oldingi va sotishdan keyingi xizmatlarni tashkil etish.

Dissertatsiyaning ishining uchinchi bobi "**Mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanishni ekonometrik modellashtirish metodologiyasi**" deb nomlanib, unda mintaqa eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlarini ekonometrik baholash, iqtisodiyot tarmoqlari eksport salohiyatini taqqoslama baholash uslubiyatini takomillashtirish va eksport salohiyatidan samarali foydalanishni ekonometrik modellashtirishning metodikasini ishlab chiqish masalalari yoritilgan.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida eksport salohiyatidan samarali foydalanish va uning zamonaviy modellarini yaratishga alohida e'tibor qaratilgan.

¹⁷ Muallif ishlanmasi

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida 28-maqсад qilib respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish belgilangan¹⁸. Mazkur vazifalarni amalga oshirish orqali mintaqalar eksport salohiyatini oshirish respublikamizdagi ustuvor yo‘nalishiga aylanadi. Shunday ekan, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi eksport salohiyatini oshirishga bog‘liq. Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali mamlakatimiz mintaqalari iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanish modellari shakllantiriladi. Bu borada mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda eksport salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan ekonometrik modellar yaratish muammolarini ilmiy o‘rganish va tahlil qilish davr talabi bo‘lib hisoblanadi.

Shu tariqa mintaqaning eksport salohiyatini oshirish uchun nazariy tahlil, iqtisodiy modellashtirish va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish asosiy bosqichlar hisoblanadi. Bu yondashuv orqali eksport hajmini oshirish, mintaqaning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytirish va iqtisodiy o‘rishni ta‘minlash mumkin. Eksport salohiyatini o‘rganilayotgan sohadagi mavjud imkoniyatlar yig‘indisi sifatida ko‘rib chiqsak, unda ushbu imkoniyatlarni mahsulot eksportiga nisbatan ham hisobga olinadi. SIEM ning umumiy ko‘rinishi:

$$\Delta Ex_t = \frac{1}{k} \sum_{i=1}^k w_i (SI_t^{(i)} - SI_{t-1}^{(i)}) \quad (1)$$

Bu yerda: ΔEx – eksportning qo‘shimcha hajm indeksi, SI – salohiyat indeklari:

SI_1 - resurs salohiyati indeksi;

SI_2 - innovatsion texnologiyalar ko‘rsatkichi,

SI_3 - mahsulot sifati va sertifikatlash darajasi,

SI_4 - eksport diversifikatsiyasi indeksi,

SI_5 - barqaror rivojlanish indeksi.

k - salohiyat ko‘rsatkichlari soni,

w_i – i-salohiyat ko‘rsatkichining vazn koeffitsiyenti: $Ex=f(SI(i))$ empirik model elastiklik koeffitsiyentlarining birlik shkaladagi ulushi

Salohiyat indeklari tuman va shaharlar kesimida bu ko‘rsatkichlarning normallashtirilgan qiymatlariga teng ($[0,1]$ kesmada yotishi va turli o‘lchov birliklardan qutilish uchun)

Shunday qilib, eksportning taklif etilayotgan iqtisodiy va matematik modeli eksport salohiyati va eksportni oshirish imkoniyatlarini eksport salohiyatini yetarli darajada amalga oshirishning imkoni bo‘lmagan hollardagi sabablarini hisobga olishga imkon beradi. Taklif etilayotgan iqtisodiy va matematik model tomonidan taqdim etilgan eksportni amalga oshirishda mavjud imkoniyatlar va yuzaga keladigan tahdidlarni tushunish, hozirgi vaqtda geosiyosiy o‘zgarishlar dunyosida ro‘y berayotgan sharoitda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda integratsiya jarayonlarining O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishiga, jumladan, eksport salohiyatiga ta‘sirini o‘rganish va ayniqsa jarayonni baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, hozirda eksport salohiyatini aniqlash bo‘yicha konsensus mavjud emas.

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Ushbu iqtisodiy kategoriyaning mazmunini shakllantirish tadqiqotchilardan eksport salohiyatining o'zlari uchun eng muhim va imkoniyatlarga ega bo'lgan jihatlariga alohida e'tibor berishni talab qiladi.

Hududlararo aholi va korxonalar migratsiyasi hamda ishlab chiqarish oqimlari ta'sirida shakllanayotgan transport-logistika infratuzilasini rivojlantirish asosida eksport salohiyatini oshirishning gravitatsion modeli taklif etilgan

$$I = G * \frac{Q_i^{\alpha_1} * Q_j^{\alpha_2}}{D_{ij}^2} * e^{\varepsilon_{ij}} \quad (2)$$

Izoh: bu yerda I – hududlararo yuk aylanmasi, D_{ij} – i-hududdan j-hududgacha masofa, G – doimiy miqdor, α_1, α_2 – model parametrlari, ε_{ij} – tasodifiy xatolik, Q – iqtisodiy oqim ko'rsatkichi bo'lib, quyidagiga teng:

$$Q_i = (Pm_i * Cm_i * W_i)^{1/3}$$

Bu yerda: Pm_i – i-hududning aholi soni, Cm_i – i-hududdagi korxonalar soni, W_i – i-hududning ishlab chiqarish quvvati.

Ishlab chiqarish omillarining ijobiy ta'siri muvaffaqiyatli raqobatning zaruriy shartidir, lekin uni kafolatlamaydi. Korxonalar ichki bozorda barqaror talabga ega bo'lgan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishi kerak; raqobatbardosh yetkazib beruvchilar va samarali strategiyaga ega. Eksport faoliyati xorijiy valyutalar oqimini rag'batlantiradi, bu korxonalar uchun ham, davlat uchun ham foydalidir. Ishlab chiqarishning rivojlanishi raqobatning kuchayishiga yordam beradi. Eksport korxonalar samaradorligini oshirishni ta'minlaydi.

Eksport salohiyatini baholash usulni shartli ravishda “sakkiz ko'rsatkichlar tizimi” deb atash mumkin. Ushbu ko'rsatkichlar asosida umumiy eksport salohiyati ko'rsatkichini hisoblash uchun (3) formuladan foydalaniladi:

$$a = \sqrt[n]{a_1 * a_2 * \dots * a_n} \quad (3)$$

bu yerda: a_n - alohida ko'rsatkichning qiymati; n - ko'rsatkichlar soni.

O.A. Shestakova¹⁹ korxonaning eksport salohiyatini har tomonlama baholash uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi, ular umumlashtirish orqali integral ko'rsatkichga (R) birlashtirilishi kerak (2-jadval).

2-jadval

Korxonalarining eksport salohiyatining rivojlanish darajasining xususiyatlari

| Ko'rsatkich | Ko'rsatkichning xarakteristikasi va funksional maqsadi | Korxonaning moliyaviy hisobotlari asosida ko'rsatkichni hisoblash |
|--|--|---|
| 1. Kompaniyaning eksport salohiyatini rivojlantirish ko'lamining xususiyatlari (R_m) | | |
| 1.1. Korxonaning sof eksport daromadi | Eksportdan tushgan tushumning (T_e) korxonaning eksport xarajatlaridan (X_e) oshib ketishini tavsiflaydi | $D_e = T_e - X_e$ |
| 1.2. O'rtacha yillik eksport hajmi | Tashqi bozorda sotilgan mahsulotlar hajmini jismoniy yoki qiymat ko'rinishida aks ettiradi | $V_{\text{eksp}} = \sum q_n p_n$ |
| 1.3. Aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati | Foydalanishning bir ishlab chiqarish tsikliga ega bo'lgan korxonaning | Balans – F. No 1 (1195-bet, k. g. + + 1195-bet k. g.) / 2 |

¹⁹ Шестакова О.А. Методические аспекты оценивания экспортного потенциала предприятия/О.А. Шестакова // Вестник НТУ "ХПИ". – 2013. – № 7 (981) – С. 173–181.

| | | |
|--|--|--|
| | operatsion aktivlarining qiymatini aks ettiradi | |
| 1.4. Korxonaning o'rtacha yillik qiymati | Korxonaning butun aktivlari to'plamining qiymatini yaxlit mulkiy kompleks sifatida aks ettiradi | Balans – F. No 1 (joriy yil uchun 1300-bet + joriy yil uchun 1300-bet) / 2 |
| 1.5. Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati | Foydalanishning uzoq ishlab chiqarish tsikliga ega bo'lgan korxonaning operatsion aktivlarining qiymatini aks ettiradi | Balans – F. No 1 (joriy yil uchun 1011-bet + joriy yil uchun 1011-bet) / 2 |
| 1.6. Eksport mahsulotining tannarxi | Eksport qilinadigan tovarlarni ishlab chiqarish uchun sarflangan resurslar hajmini pul ifodasida aks ettiradi | Shakl No 2 "Foyda va zararlar to'g'risida hisobot" 2050 |
| 1.7. Xodimlarning o'rtacha soni | Eksport shartnomalarini bajarishga jalb qilingan ishchilarning umumiy sonini aks ettiradi | Eksportning mehnat zichligi bilan belgilanadi |
| 2. kompaniyaning eksport salohiyatini rivojlantirish sifat xususiyatlari (R_q) | | |
| 2.1. Korxonaning rentabellik darajasi | Korxonaning aktivlari hajmiga (A) qarab olingan foyda hajmini (F_h) ko'rsatadi | $R_a = F_h / A$ |
| 2.2. Innovatsiya (texnologiya) koeffitsiyenti | Korxonaning umumiy hajmida (V_{um}) innovatsion mahsulotlar ulushini (V_i) aks ettiradi | $k_i = V_i / V_{um}$ |
| 2.3. Aktivlarni kapitalashtirish koeffitsiyenti | Korxonaning aktivlarining bozor (V_p) va balans (V_b) qiymatining nisbatini aks ettiradi. | $k_k = V_p / V_b$ |
| 2.4. Eksport diversifikatsiya koeffitsiyenti (indeks) | Korxonaning umumiy eksport hajmidagi (V_{um}) asosiy eksport ulushini (V_{as}) tavsiflaydi | $k_d = V_{as} / V_{um}$ |
| 2.5. Asosiy vositalarning amortizatsiya jamg'arish koeffitsiyenti | Asosiy vositalarning (S_p) ekspluatatsiyasi natijasidagi xarajatlar (A) miqdorini tavsiflaydi. | $k_z = A / S_p$ |

Jadvalda keltirilgan korxonalarining eksport salohiyatining rivojlanish darajasining xususiyatlaridan foydalangan holda, Eksport potentsialini rivojlantirish miqyosi (R_m) va sifat (R_q) darajalarini aniqlash (3) formula bo'yicha Spirman darajali korrelyatsiya koeffitsiyentlari (k_s) va Fexner tasodiflarini (k_f) birlashtirish yo'li bilan amalga oshirilishni taklif etamiz:

$$R_m(R_q) = \frac{(1+k_s)*(1+k_f)}{2_j} \quad (4)$$

Bu yerda j - integral ko'rsatkichlar soni ($j=2$). Korxonaning eksport salohiyatini rivojlantirishning integral ko'rsatkichi rivojlanish ko'lamini va sifati darajalari o'rtacha arifmetik vazni usuli bilan quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$R = \frac{R_m*q + R_q*h}{100\%} \quad (5)$$

bu yerda, R - integral ko'rsatkich; R_m , R_q - mos ravishda, $[0;1]$ diapazonida o'zgaruvchan rivojlanish ko'lamini va sifati ko'rsatkichlari; g , h – mos ravishda korxonaning eksport salohiyatini rivojlantirish miqyosi va sifat darajalarining salmog'i ($g + h = 100\%$).

Eksport faoliyatini zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash tizim faoliyati va uning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri jarayonida rivojlanishini chuqur, yaxlit tahlil qilish

asosidagina mumkin bo‘ladi²⁰. Tizim tahliliga uch turdagi vazifalar xosdir. Tahlilning birinchi vazifasi tizimning mavjud tuzilmasi (eksport salohiyati) asosida uning faoliyati samaradorligini aniqlashdan iborat. Bunda miqdoriy tahlil usullaridan (iqtisodiy va statistik tahlil) foydalaniladi. Sintezning vazifasi eksport faoliyati maqsadlariga erishishga yordam beradigan mavjud tizimning xususiyatini hisobga olgan holda tuzilmani aniqlashdan iborat. Eksport salohiyatini har tomonlama baholash, bizning fikrimizcha, korxonaning har bir eksport mahsuloti ball oladigan ball usuli yordamida amalga oshirilishi kerak. Ushbu ko‘rsatkichni quyidagi formula bo‘yicha hisoblanash maqsadga muvofiqdir:

$$K_k = \alpha * K_{ies} * (1 - \alpha) * K_{tes} \quad (6)$$

bu yerda, K_{ies} – korxonaning ichki eksport salohiyatini har tomonlama baholash; K_{tes} – korxonaning tashqi eksport salohiyatini har tomonlama baholash; α - eksport salohiyatining konjugatsiya koeffitsiyenti.

Joriy bozor konyunkturasini aks ettiruvchi ichki va tashqi eksport salohiyatining bog‘lanish koeffitsiyentlari mos ravishda 0,3 va 0,7 ga teng o‘lish sur‘atida; stabilizatsiya paytida - 0,5 va 0,5; turg‘unlikda - 0,7 va 0,3. Xulosa qilib aytganda, ichki va tashqi eksport salohiyatining bog‘lanish koeffitsiyentlari birlikka teng bo‘lishi kerak.

Asosiy kapital xarajatlari asbob-uskunalarining bir oy davomida ishlagan vaqti bilan belgilanadi, mehnat xarajatlari esa oylik ish soatlari bilan o‘lchanadi. Korxonaning eksport salohiyatini (KES) rivojlantirish miqyosi va sifati darajalarini aniqlash bosqichlari ketma-ketligida 4 va 5 bosqichlarda O.A.Shestakova jadvalida keltirilgan eksport salohiyatini rivojlantirish ko‘rsatkichlarini reyting baholash uchun taklif etilayotgan identifikatsiya xaritasidan foydalanishni tavsiya qilamiz (3-jadval).

3-jadval

KES reytingini baholashning identifikatsiya mezonlari

| № | Ko‘rsatkichlar | 1-sinf | 2-sinf | 3-sinf |
|--|--|--------|--------|--------|
| I. KESning rivojlanish ko‘lami | | | | |
| 1.1 | Eksport rentabelligining o‘shish sur‘ati, % | 25 | 20-25 | < 20 |
| 1.2 | Eksport hajmining o‘shish sur‘ati, % | 20 | 15-20 | < 15 |
| 1.3 | Joriy aktivlarning o‘shish sur‘ati, % | 15 | 10-15 | < 10 |
| 1.4 | Aktiv qiymatining o‘shish sur‘ati, % | 10 | 8-10 | < 8 |
| 1.5 | Asosiy vositalar qiymatining o‘shish sur‘ati, % | 8 | 6-8 | < 6 |
| 1.6 | Eksport mahsulotlari tannarxining o‘shish sur‘ati, % | 5 | 5-6 | > 6 |
| 1.7 | Korxonada xodimlari sonining o‘shish sur‘ati | 4 | 5-6 | > 6 |
| II. KESni ishlab chiqish sifati | | | | |
| 2.1 | Eksport rentabelligining o‘shish sur‘ati, % | 30 | 25-30 | < 20 |
| 2.2 | Eksport ishlab chiqarishni innovatsiyalashning o‘shish sur‘atlari, % | 25 | 20-25 | < 20 |
| 2.3 | Aktiv kapitallashuvining o‘shish sur‘ati, % | 20 | 15-20 | < 15 |
| 2.4 | Korxonada eksportini diversifikatsiya qilishning o‘shish sur‘ati, % | > 15 | 10-15 | < 10 |
| 2.5 | Yig‘ilgan amortizatsiya koeffitsiyentining o‘shish sur‘ati, % | > 15 | 10-15 | < 10 |

²⁰ Bykova, V. H. (2005), “The problems of formulating and managing the financial and economic potential of feed-in”, *Ekonomika: problemy teorii ta praktyky*, vol. 203, pp. 346–351.

Korxonada eksport uchun reja qilingan mahsulotni ishlab chiqarishda korxonada uchta variantdan birini tanlashi mumkin. Ishlab chiqarish funksiyasi ishlab chiqarish xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlarni tavsiflaydi. Ishlab chiqarish tarmog'i ma'lumotlariga ko'ra prognoz qilingan ishlab chiqarish hajmini o'zgartirganda, omillarning yangi kombinatsiyalarini aniqlash mumkin. Bu ishlab chiqarish tarmog'i ma'lumotlaridan foydalangan holda eng samarali variantni tanlash imkonini beradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi jarayonlarni milliy va mintaqaviy darajada boshqarish hamda tartibga solish samaradorligi darajasi ko'plab ichki va tashqi omillarning kompleks ta'siri bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, biz mintaqaning tashqi iqtisodiy faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini shakllantirish vazifasini belgilashning mintaqaviy darajada tashqi iqtisodiy faoliyatning shunday shakllari, usullari va yo'nalishlarini belgilash, ular mavjud institutsional hamda geosiyosiy muhit, mintaqaning ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy rivojlanish darajasini va uning hududiy tizimlarini optimallashtirish, shuningdek, uning rivojlanish jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradigan variantlarni taklif qilish mumkin.

Mintaqaviy darajada eksport samaradorligini baholash uchun biz ushbu muammoni hal qilishga yondashuvni o'zgartirdik hududiy darajadagi mavjud statistik bazani hisobga olgan holda. Eksport samaradorligi tashqi iqtisodiy faoliyatning eksport tushumlari va xarajatlarini solishtirish orqali aniqlanadi. Buning uchun Xorazm viloyatining 2020-2024-yillardagi mavzu doirasi bo'yicha tanlangan statistika boshqarmasi ma'lumotlardan foydalanib viloyat eksport samaradorligi ko'rsatkichini hisoblash quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi:

$$ES_i = \frac{\left(\frac{Ex_i}{As_i}\right) * \left(\frac{Ex_i}{YIM}\right) * 10}{\left(\frac{Ex}{As}\right) * \left(\frac{Ex_i}{YHM}\right)} \quad (7)$$

bu yerda EExi - i-hududning eksport samaradorligi;

$\frac{Ex_i}{As_i}$ – aholi jon boshiga i-mintaqa eksporti;

$\frac{Ex_i}{YIM}$ – milliy yalpi ichki mahsulotdagi i-mintaqa eksportining ulushi;

$\frac{Ex}{As}$ – aholi jon boshiga milliy eksport;

$\frac{Ex_i}{YHM}$ – YaHMda i-mintaqa eksportining ulushi.

Eksport ko'rsatkichlari va uning samaradorligi o'zgarishlarining mohiyati, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash dasturlarini shakllantirish kontekstida hududning eksport salohiyatini miqdoriy baholashni o'tkazishning ahamiyati ushbu muammoni hal etishning miqdoriy usullarini shakllantirish zarurligini taqozo etmoqda. Bu ko'rsatkich 100% sifatida qabul qilingan o'rtacha foizga nisbatan yalpi ichki mahsulotning eksport qilingan har bir foizidan aholi jon boshiga tushumning nisbiy miqdorini ko'rsatadi. Mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$K_iXMT = \frac{Ex_i/Ex_c}{YaIM_i/YaIM_c} \quad (8)$$

bu yerda, Ex_i - i -mamlakat eksporti; Ex_c – jahon eksporti; $YaIM_i$ - i -mamlakatning yalpi ichki mahsuloti; $YaIM_c$ - jahon yalpi ichki mahsuloti.

Biz bu ko‘rsatkichni har qanday davlatning jahon ishlab chiqarishida va u yoki bu tovarni eksport qilishdagi ishtirokini aniqlash uchun, bizning misolimizda jahon bozorlariga eksport qilinadigan mahsulotlar hamda ishlar va xizmatlarni eksport qilishda mamlakatning ishtiroki koeffitsiyentiga aylantiramiz. Ushbu ko‘rsatkichni miqdor va sifat o‘lchov birliklari asosida hisoblash mumkin. Shuning uchun biz taklif qilingan ko‘rsatkichni quyidagi formuladan foydalanib hisoblaymiz:

$$K_iXAI = \frac{Ex_{ij}/Ex_{cj}}{YIch_{ij}/YIch_{cj}} \quad (9)$$

bu yerda, K_iXAI – mamlakatning jahon bozorlariga eksport qilinadigan mahsulotlar hamda ishlar va xizmatlar eksportidagi ishtiroki koeffitsiyenti; Ex_{ij} – j -tovarning i -mamlakatining eksporti; Ex_{cj} - j -tovarning jahon eksporti; $YIch_{ij}$ – j -tovarning i -mamlakatining mahsulotlar hamda ishlar va xizmatlar hajmi; $YIch_{cj}$ – j -tovarning jahon yalpi ishlab chiqarishi.

Biz besh yil davomida Xorazm viloyatining jahon bozorlariga eksport qilinadigan mahsulotlar hamda ishlar va xizmatlar eksportidagi ishtiroki koeffitsiyentlarini hisoblab chiqamiz (4-jadval).

4-jadval

2020-2024 yillar uchun Xorazm viloyatining jahon bozorlariga eksport qilinadigan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar eksportidagi ishtiroki darajasi

| Ko‘rsatkichlar | Yillar | | | | |
|-------------------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| | 2019/2020 | 2020/2021 | 2021/2022 | 2022/2023 | 2023/2024 |
| Ex_{ij}/Ex_{cj} | 0,323 | 0,333 | 0,161 | 0,102 | 0,160 |
| B_{ij}/BBx_{cj} | 0,08 | 0,078 | 0,069 | 0,068 | 0,052 |
| K_iMB | 4,0 | 4,27 | 2,33 | 1,5 | 3,08 |

4-jadvaldagi hisob-kitoblar quyidagi xulosalar chiqarish imkonini berdi. Xorazm viloyati uujahon arpa yetishtirish va eksport qilishda juda faol ishtirok etadi, chunki hisoblangan koeffitsiyent barcha hisob-kitob yillari davomida birdan katta. Tahlil qilinayotgan davr uchun eng katta koeffitsiyent 2019/2020 yillarda kuzatilgan, o‘shanda Xorazm viloyatining jahon bozorlariga eksport qilinadigan mahsulotlar hamda ishlar va xizmatlar eksportidagi holat eksport qiluvchi davlatlar orasida ijobiy o‘rinni egallagan. Lekin, biz ko‘rib turganimizdek, 2021 yildan boshlab, Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan eksport qilinadigan mahsulotlar hamda ishlar va xizmatlar eksportini qisqarishi tufayli ko‘rsatkich sezilarli darajada kamaydi. Shunga ko‘ra, Xorazm viloyatining boshqa hududlardagi eksportchilaridan biri sifatidagi roli sezilarli darajada zaiflashdi. Muhim ishtirok darajasi 2024/2023 yillarda kuzatildi – 3,08 ga teng bo‘lib Xorazm viloyati Respublika eksporti tarkibidagi ulushi muhim o‘rnini ko‘rsatadi. Ammo shuni ta’kidlaymizki, bu koeffitsiyent ham ko‘proq eksport salohiyatini amalga oshirish holatini aks ettiradi, lekin potentsial eksport imkoniyatlarini hisobga olmaydi.

Dissertatsiya ishining to‘rtinchi “**Mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanish istiqbollari**” deb nomlanib, unda mintaqqa eksport salohiyatidan samarali foydalanishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlari, YaIM o‘shishiga eksport hajmining

ta'sirini ekonometrik modellashtirish va eksport salohitidan samarali foydalanishni ko'p ssenariyli prognoz modellari shakllantirilgan.

Bugungi kunda mintaqqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda eksport salohiyatini samaradorligini oshirish strategiyasi ko'p qirrali yondashuvni talab etadi. Tashqi savdoni samarali amalga oshirish uchun eksport sohasida tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni joriy qilish kerak. Tadqiqotning tashkiliy-iqtisodiy tomonini ochib berish uchun ma'mulot ishlab chiqarish korxonalaridagi jarayonlarni tartibga solish shakllari, usullari va vositalaridan foydalanilgan. Ulardan foydalanish boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy tarkibiy qismlariga bevosita ta'sir qiladi.

Bugungi kunda viloyatdagi eksportyor va importyor korxonalar Turkmaniston Respublikasi hamda O'zbekistonning janubiy qismida joylashgan davlatlarga Buxoro viloyatining Olot tumanidagi chegara posti orqali yuk tashish transportlarida mahsulotlar olib kirish va chiqishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida tadbirkorlarga ortiqcha transport xarajatlarni va ortiqcha vaqt sarflanishiga sabab bo'lmoqda. Shovot tumanida esa chegara-o'tkazuv punkti faoliyatini yo'lga qo'yish orqali to'g'ridan-to'g'ri Ashxobot shahrigacha boradigan masofani 400 km.ga qisqartirishga erishiladi. Natijada, transport xarajatlari kamayib, eksporterlar korxonalar uchun qulaylik yaratiladi hamda viloyatning eksport salohiyati 10 mln. dollarga oshiriladi.

Excel jadvaliga Statistika Agentligidan olingan 2010-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi YaIM va eksport hajmi o'zgarishi miqdorlarini kiritamiz ya'ni x va y ustunlarini ko'rsatkichlar bilan to'ldiramiz (5-jadval).

5-jadval

2010-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi eksportining YaIM hajmi o'zgarishiga ta'siri, (mlrd. so'm)²¹

| Yil | Eksport, mlrd so'm | YaIM, mlrd so'm |
|------|--------------------|-----------------|
| 2010 | 20,251 | 78,937 |
| 2011 | 25,641 | 103,233 |
| 2012 | 25,690 | 127,590 |
| 2013 | 30,035 | 153,311 |
| 2014 | 32,808 | 186,830 |
| 2015 | 34,720 | 221,351 |
| 2016 | 36,344 | 255,422 |
| 2017 | 64,275 | 356,454 |
| 2018 | 112,891 | 473,653 |
| 2019 | 154,317 | 594,660 |
| 2020 | 151,944 | 668,038 |
| 2021 | 176,792 | 820,537 |
| 2022 | 217,058 | 995,573 |
| 2023 | 285,998 | 1,192,163 |

Kiritgan ma'lumotlarni visual ko'rish uchun nuqtali diagramma (Scatter Plot) chizamiz, buning uchun esa MS Excelda quyidagi amallarni bajaramiz:

Insert → Scatter Plot

Add Trendline funksiyasini tanlaymiz va regressiya chizig'ini o'rnatib olamiz.

²¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (stat.uz)

Display Equation on Chart funksiyasi orqali formulani diagrammada ko'rsatamiz. Grafikdagi formuladan ko'rishimiz mumkinki bizning chiziqli tenglamamiz quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

$$y = 40,863 + 4.132 * x \quad R^2 = 0.98 \quad (10)$$

Determinatsiya koeffitsiyentimiz 0.98 bo'lgani uchun model sifatli deyishimiz mumkin.

Determinatsiya koeffitsiyenti 0.98, F test qiymati yaxshi, t test boyicha ikkala B koeffitsiyentimiz ham -1.96 va 1.96 oraliqda emasligi uchun yaxshi natija va baholangan YaIM va real YaIM orasidagi farq qoldiqlarimiz o'zaro funksional bog' bilan bog'lanmagan. Demak, qoldiqlar orasida avtokorelyatsiya yoq deyishimiz mumkin va model sifatining yaxshi ekanligini aytishimiz mumkin.

2010-2023-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida eksport hajmining o'sishi va uning YaIM (Yalpi ichki mahsulot) dinamikasiga ta'siri sezilarli darajada bo'lgan.

Mintaqa iqtisodiyotini eksport salohiyati asosida rivojlantirish darajasini baholash mohiyatan tashqi savdo tizimi, hususan eksport tizimining qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirishdagi hissasini o'lchashni ifoda etadi.

Mintaqaning eksport tizimi salohiyati bir qator ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topadi. Hususan, Xorazm viloyatining tashqi savdo aylanmasi (*TSA*), mln AQSh dollari, eksport hajmi (*EH*), mln AQSh dollari, eksportni rivojlantirish uchun jalb qilingan investitsiyalar hajmi (*ERIH*), mlrd so'm, xalqaro sertifikatga ega mahsulotlar eksporti hajmi (*XSME*), mln AQSh dollari, ekologik toza mahsulotlar eksporti (paxta tolasini hisobga olmaganda) (*ETME*), mln AQSh dollari, eksportyor korxonalar soni (*EKS*), ta, eksportyor korxonalaridagi ishchi xodimlar soni (*EKXS*), kishi, eksportyor korxonalarda bir xodimga tog'ri keluvchi eksport hajmi (*IKS*), ming AQSh dollari, eksportyor korxonalar birligiga tog'ri keluvchi eksport hajmi (*EKEH*), ming AQSh dollari ko'rsatkichlari mintaqaning eksport salohiyatini belgilovchi asosiy omillardir (6-jadval).

6-jadval

Xorazm viloyatining eksport salohiyati ko'rsatkichlari²²

| Yillar | Tashqi savdo aylanmasi, mln \$ | Eksport hajmi, mln \$ | Eksportni rivojlantirish xarajatlari, mlrd so'm | Xalqaro sertifikatga ega mahsulot eksporti, mln \$ | Ekologik toza mahsulotlar eksporti, mln \$ | Xodimlar birligiga eksport hajmi, ming \$ | Korxonalar birligiga eksport hajmi, ming \$ |
|--------|--------------------------------|-----------------------|---|--|--|---|---|
| | <i>TSA</i> | <i>EH</i> | <i>ERIH</i> | <i>XSME</i> | <i>ETME</i> | <i>IKS</i> | <i>EKEH</i> |
| 2011 | 209,8 | 156,2 | 46,476 | 43,8545 | 13,280 | 135,7081 | 2892,5926 |
| 2012 | 291,5 | 206,2 | 48,986 | 47,5327 | 12,075 | 149,9636 | 2863,8889 |
| 2013 | 247,7 | 155,0 | 53,248 | 49,5684 | 8,572 | 106,4560 | 2013,9870 |
| 2014 | 298,3 | 198,1 | 56,390 | 53,4360 | 2,912 | 110,3621 | 2445,6790 |
| 2015 | 305,5 | 139,4 | 60,562 | 51,9978 | 0,324 | 62,0659 | 1408,0808 |
| 2016 | 211,4 | 111,4 | 64,741 | 67,2277 | 12,312 | 47,5053 | 1102,9703 |
| 2017 | 216,6 | 95,60 | 69,791 | 71,4764 | 19,709 | 30,2819 | 692,7536 |
| 2018 | 256,0 | 122,7 | 76,142 | 75,1791 | 40,402 | 30,8912 | 717,5439 |
| 2019 | 272,0 | 102,1 | 83,985 | 79,8027 | 49,168 | 20,5805 | 479,3427 |

²² Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi, Xorazm viloyati statistika boshqarmasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

| | | | | | | | |
|------|-------|-------|---------|----------|---------|---------|----------|
| 2020 | 557,7 | 146,9 | 93,643 | 80,9435 | 81,926 | 25,2449 | 567,1815 |
| 2021 | 469,3 | 169,6 | 106,191 | 89,4309 | 108,218 | 30,2695 | 673,0159 |
| 2022 | 517,2 | 231,2 | 123,075 | 91,6248 | 147,909 | 42,6883 | 928,5141 |
| 2023 | 787,3 | 247,0 | 141,167 | 101,4676 | 157,246 | 43,5319 | 976,2846 |
| 2024 | 881,1 | 304,2 | 169,119 | 108,6903 | 202,539 | 33,1915 | 892,0821 |

Xorazm viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bilan eksport salohiyati ko'rsatkichlari o'rtasidagi hisoblangan o'zaro juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari ta'sir omillarining darajasini belgilab beradi (7-jadval).

7-jadval

Xorazm viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va eksport salohiyati ko'rsatkichlari o'rtasidagi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari²³

| | <i>SMH</i> | <i>QXM</i> | <i>XKH</i> | <i>AKI</i> | <i>IMH</i> |
|-------------|------------|------------|------------|------------|------------|
| <i>TSA</i> | 0,862 | 0,721 | 0,880 | 0,919 | 0,888 |
| <i>EH</i> | 0,521 | 0,315 | 0,555 | 0,668 | 0,541 |
| <i>ERIH</i> | 0,969 | 0,881 | 0,980 | 0,969 | 0,973 |
| <i>XSME</i> | 0,844 | 0,701 | 0,970 | 0,904 | 0,856 |
| <i>ETME</i> | 0,942 | 0,815 | 0,945 | 0,963 | 0,945 |
| <i>IKS</i> | -0,744 | -0,890 | -0,735 | -0,619 | -0,725 |
| <i>EKEH</i> | -0,731 | -0,871 | -0,719 | -0,602 | -0,710 |

Natijalar tashqi savdo aylanmasi, eksportni rivojlantirish uchun jalb qilingan investitsiyalar hajmi, xalqaro sertifikatga ega mahsulotlar eksporti hajmi, ekologik toza mahsulotlar eksporti (paxta tolasini hisobga olmaganda) ko'rsatkichlarining mintaqa asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining o'zgarishiga katta ta'sirga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, kishi, eksportyor korxonalarida bir xodimga tog'ri keluvchi eksport hajmi va eksportyor korxonalari birligiga tog'ri keluvchi eksport hajmi ham o'rta darajadan yuqori korrelyatsion zichlik hosil qiladi.

O'tkazilgan korrelyatsion va regression tahlil natijalariga ko'ra quyidagi regression tenglamalarini qurish maqsadga muvofiqiqligi aniqlandi, ya'ni

$$SMH = p_{10} + p_{11} * TSA + p_{12} * BP_1 + e_1 \quad (11)$$

$$QXM = p_{20} + p_{21} * IKS + p_{22} * ERIH + e_2 \quad (12)$$

$$XKH = p_{30} + p_{31} * ETME + p_{32} * XSME + e_3 \quad (13)$$

$$AKI = p_{40} + p_{41} * ERIH + p_{42} * BP_2 + e_4 \quad (14)$$

$$IMH = p_{50} + p_{51} * ETME + p_{52} * EKEH + e_5 \quad (15)$$

Bu yerda: p_{ij} ($i=1, \dots, 5; j=0, 1, 2$) – model koeffitsiyentlari, BP_1 – tashqi savdo tizimini rivojlantirishda davlat islohotlarining yangi bosqichga chiqqan davrdan boshlab ta'sir etuvchi binar parametr, BP_2 – mintaqada eksportni rivojlantirish xarajatlarini so'ngi 2025-2030-yillikdagi qisqartirish fonida kutilishi mumkin bo'lgan iste'mol mahsulotlarining o'zgarishini baholash uchun kiritilgan binar parametr, e_i – i -model model xatoligi ($i=1, \dots, 5$). Ishlab chiqilgan modellar tarkibida omillar soni 2 ga, kuzatishlar soni 13 ga teng. U holda $\alpha=0,05$ – ishonchlilik ehtimolida erkinlik darajalari soni $k=10$ uchun t-taqsimotning jadval qiymati 2,23 ga, F-taqsimotning $F_{0,05;2;10}$ jadval qiymati 4,1 ga teng, Darbin-Uotson mezonining ishonchlilik chegarasi (1,64; 2,36) intervaldan iborat ekanligini inobatga olganda monandlik shartlari

²³ Manba: Muallif tomonidan hisoblab chiqilgan

bajariladi.

Tuzilgan modellar adekvatligini hisobga olib ularning elastiklik ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi (8-jadval).

8-jadval

Xorazm viloyati raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarining eksport tizimiga bog'liq modellari bo'yicha hisoblangan elastiklik ko'rsatkichlari²⁴

| Omillar | Koeffitsiyent | Standartlashgan koeffitsiyentlar | Elastiklik ko'rsatkichlari |
|--|---------------|----------------------------------|----------------------------|
| Sanoat mahsulotlari hajmi (SMH) | | | |
| TSA | 2.173105 | 0.468446 | 0.453673 |
| BP1 | 1012.999 | 0.513027 | 0.229812 |
| C | 597.9335 | NA | 0.316515 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari hajmi (QXM) | | | |
| IKS | -5.972304 | -0.564482 | -0.132558 |
| ERIH | 6.756137 | 0.540697 | 0.206016 |
| C | 2590.375 | NA | 0.926542 |
| Xizmat ko'rsatish hajmi (XKH) | | | |
| ETME | 4.736847 | 0.244241 | 0.110843 |
| XSME | 47.26609 | 0.760883 | 1.306997 |
| C | -1092.539 | NA | -0.417839 |
| Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (AKI) | | | |
| ERIH | 22.43372 | 1.172378 | 1.476721 |
| BP2 | -504.7477 | -0.256500 | -0.055677 |
| C | -545.2945 | NA | -0.421045 |
| Iste'mol tovarlari hajmi (IMH) | | | |
| ETME | 11.95046 | 0.785740 | 0.469326 |
| EKEH | -0.379931 | -0.318973 | -0.324913 |
| C | 1332.971 | NA | 0.855587 |

Yuqorida omillarning elastikligini, aniqroq aytganda mintaqaning iqtisodiy salohiyatini, raqobatbardoshligini oshirishda eksport tizimi omillarining ta'sirini miqdoriy tahlil qilganimizda, bu omillarning rivojlanish jarayonini tezlashtirish imkoniyatlari mavjudligi asoslandi. Shuningdek, eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va ularning xodimlari bo'yicha faoliyat natijaviyligi qoniqarsiz ekanligi kuzatildi. Shunday bo'lsada, olib borilayotgan islohatlar, eksport tizimi bo'yicha mintaqaning salohiyatini inobatga olganda tizimning barcha parametrlari (elementlari) istiqbolda o'suvchan trend tendensiyasiga ega bo'lishi mumkinligini inkor etib bo'lmaydi.

Xorazm viloyati eksport salohiyati ko'rsatkichlarining trend modellarini parametrlashtirish va umumiy monandlikga tekshirish natijalari barcha tizim ko'rsatkichlari (eksport hajmi bundan mustasno) trend (asosan chiziqli bo'lmagan parabolik) qonuniyatlar ta'sirida ekanligini ko'rsatmoda Eksport hajmining dinamik o'zgarishining eng maqbul shakli parabolik trendga mos kelsada, biroq bu ko'rsatkich dispersiyasi o'zgarishini parabolik trend bilan hisoblashda mos kelish ehtimoli 65 foizni tashkil etadi. Shu sababli uning istiqbolda o'zgarishini baholashda trenddan foydalanish tavsiya etilmaydi. Aksincha, mazkur ko'rsatkich bo'yicha tuzilgan ARIMA(2,0,2) modelidan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

²⁴ Manba: Muallif tomonidan Eviews dasturidan foydalanib hisoblab chiqilgan

$$EH_t = 170,9 + 1,68 * EH_{t-1} - 0,9 * EH_{t-2} - 1,3 * \varepsilon_{t-1} + \varepsilon_{t-2} \quad (16)$$

(z): (7,71) (13,90) (-7,30) (-4,15) (2,52)
 (p): (0,00) (0,00) (0,00) (0,00) (0,01)

Ushbu model bo'yicha determinatsiya koeffitsiyenti 0,91 ga MAPE ko'rsatkichi 11,84 foizga teng bo'lib, hisoblangan z-statistika va Pqiymat talab darajasida ekanligi, model adekvatligini asoslovchi asosiy jihatlar hisoblanadi.

Tuzilgan modellar bo'yicha mintaqaning raqobatbardoshlik salohiyati va eksport tizimi ko'rsatkichlarining prognoz parametrlari hisoblab chiqildi (9-jadval).

9-jadval

Xorazm viloyati eksport salohiyati ko'rsatkichlarining prognoz ko'rsatkichlari²⁵

| Prognoz yillari | Tashqi savdo aylanmasi, mln \$ | Eksport hajmi, mln \$ | Eksportni rivojlantirish xarajatlari, mlrd so'm | Xalqaro sertifikatga ega mahsulot eksporti, mln \$ | Ekologik toza mahsulotlar eksporti, mln \$ | Xodimlar birligiga eksport hajmi, ming \$ | Korxonalar birligiga eksport hajmi, ming \$ |
|--------------------|--------------------------------|-----------------------|---|--|--|---|---|
| | <i>TSA</i> | <i>EH</i> | <i>ERIH</i> | <i>XSME</i> | <i>ETME</i> | <i>IKS</i> | <i>EKEH</i> |
| 2026 | 1025,82 | 359,16 | 164,0296 | 118,2109 | 248,096 | 72,0925 | 1473,15 |
| 2027 | 1180,644 | 403,17 | 180,339 | 126,8861 | 293,566 | 91,26 | 1834,96 |
| 2028 | 1349,158 | 455,63 | 197,7006 | 136,198 | 342,896 | 113,8125 | 2261,59 |
| 2029 | 1531,361 | 498,32 | 216,1145 | 146,1933 | 396,086 | 139,75 | 2753,04 |
| 2030 | 1763,354 | 547,85 | 235,5805 | 156,9222 | 453,136 | 169,0725 | 3309,31 |
| 2026/2030 nisbat | 2,00 | 1,80 | 1,39 | 1,44 | 2,24 | 5,09 | 3,71 |
| O'rtacha o'sish, % | 114,79 | 110,75 | 109,63 | 107,34 | 117,02 | 124,59 | 122,99 |

Hisoblab chiqilgan Xorazm viloyati eksport salohiyati ko'rsatkichlarining prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha, tashqi savdo aylanmasi keyingi besh yillikda o'rtacha 14,8 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030-yilda 2026-yilga nisbatan 2 barobarga oshishi ta'minlanadi. Mintaqada eksport hajmi aylanmasi keyingi besh yillikda o'rtacha 10,8 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030-yilda 2026-yilga nisbatan 1,8 barobarga oshishi ta'minlanadi. Mintaqada eksportni rivojlantirish xarajatlari keyingi besh yillikda o'rtacha 9,6 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030-yilda 2026-yilga nisbatan 1,4 barobarga oshadi. Mintaqada xalqaro sertifikatga ega mahsulot eksporti keyingi besh yillikda o'rtacha 7,3 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030-yilda 2026-yilga nisbatan 1,4 barobarga oshishi ta'minlanadi. Mintaqada ekologik toza mahsulotlar eksporti keyingi besh yillikda o'rtacha 17,0 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030-yilda 2026-yilga nisbatan 2,2 barobarga oshishi ta'minlanadi. Mintaqada eksport korxonlarida xodimlar birligiga eksport hajmi keyingi besh yillikda o'rtacha 24,6 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030-yilda 2026-yilga nisbatan 5,1 barobarga oshishi ta'minlanadi. Mintaqada eksport korxonlari birligiga eksport hajmi keyingi besh yillikda o'rtacha 23,1 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030-yilda 2026-yilga nisbatan 3,7 barobarga oshishi ta'minlanadi.

Shuningdek, Xorazm viloyati iqtisodiyotining eksport tizimi salohiyati asosida rivojlanish ko'rsatkichlarining prognoz parametrlari aniqlandi (10-jadval).

²⁵ Manba: Muallif tomonidan hisoblab chiqilgan

**Xorazm viloyati iqtisodiyotining eksport tizimi salohiyati asosida
rivojlanish ko'rsatkichlarining prognoz parametrlari²⁶**

| Prognoz yillari | Sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm | Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm | Xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'm | Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm | Iste'mol tovarlari hajmi, mlrd. so'm |
|-----------------------|--|--|--|--|---|
| | <i>SMH</i> | <i>QXM</i> | <i>XKH</i> | <i>AKI</i> | <i>IMH</i> |
| 2026 | 3840,146 | 3984,955 | 6198,45 | 2629,751 | 3748,061 |
| 2027 | 4176,596 | 4171,282 | 7213,89 | 2995,632 | 4155,804 |
| 2028 | 4542,795 | 4378,165 | 8141,15 | 3385,118 | 4585,204 |
| 2029 | 4938,742 | 4605,603 | 9536,28 | 3798,209 | 5136,783 |
| 2030 | 5442,886 | 4853,597 | 10841,16 | 4234,906 | 6213,676 |
| 2026/2030 nisbat | 1,49 | 1,39 | 2,10 | 1,59 | 1,84 |
| O'rtacha o'sish, % | 109,03 | 104,91 | 115,76 | 113,11 | 113,10 |

Mintaqada sanoat ishlab chiqarishi keyingi besh yillikda o'rtacha 9,03 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030-yilda 2026-yilga nisbatan 1,5 barobarga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari hajmi keyingi besh yillikda o'rtacha 4,9 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030-yilda 2026-yilga nisbatan 1,39 barobarga, xizmat ko'rsatish hajmi keyingi besh yillikda o'rtacha 15,8 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030-yilda 2026-yilga nisbatan 2,1 barobarga, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi keyingi besh yillikda o'rtacha 13,11 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030-yilda 2026-yilga nisbatan 1,6 barobarga, iste'mol tovarlari hajmi keyingi besh yillikda o'rtacha 13,1 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030-yilda 2026-yilga nisbatan 1,84 barobarga oshishi ta'minlanadi.

Xorazm viloyatida tashqi savdo aylanmasining 1 mln AQSH dollarga ortishi sanoat ishlab chiqarishini 2,17 mlrd so'mga oshishiga xizmat qiladi. Keyingi besh yillikda tashqi savdo hamda eksport hajmining ortishi barobaridagi 1,11 nisbat mintaqada import hajmining yuqoriligi saqlanib qolishini ifoda etadi. Mintaqada eksportni rivojlantirish xarajatlarining 1 mlrd. so'mga ortishi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari hajmining 6,76 mlrd so'm ortishini ta'minlaydi. Mintaqada ekologik toza mahsulotlar eksportining 1 mln. AQSH dollariga ortishi xizmat ko'rsatish hajmining 4,74 mlrd so'mga, xalqaro sertifikatga ega mahsulot eksportining shu miqdorda ortishi esa 47,3 mlrd. so'mga ortishini ta'minlab beradi. Mintaqada eksportni rivojlantirish xarajatlarining 1 mlrd so'mga ortishi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 11,95 mlrd so'mga ortishiga olib keladi. Mintaqada ekologik toza mahsulotlar eksportining 1 mln. AQSH dollariga ortishi iste'mol tovarlari hajmining 11,95 mlrd so'mga ortishini ta'minlashga xissa qo'shadi.

²⁶ Manba: Muallif tomonidan hisoblab chiqilgan

XULOSA

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalar olindi:

1. Mintaqada eksport salohiyatidan samarali foydalanish tashqi iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishning eng muhim sharti bo'lib qaraladi. Bu holatda avvalo mintaqa eksport salohiyatini oshirishning nazariy-uslubiy yondashuvlarini chuqurroq tadqiq qilish talab etiladi. Chunki, eksport tovarlar yoki kapitalni chet elga eksport qilish shaklidir.

2. Eksport salohiyatidan samarali foydalanish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu holat modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi hamda uning an'anaviyligi alohida hisobga olinadi. Olib borilgan tadqiqotlar ham bevosita ushbu muhim fikrlarni asoslaydi. Undan samarali foydalanish yo'li sifatida SIE modeli natijasida mintaqadagi iqtisodiyot innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik va eksport salohiyatining uzoq muddatli barqaror o'sishiga erishadi.

3. Tadqiqotda eksport salohiyatidan samarali foydalanishning ilg'or xorijiy davlatlar tajribalari va mexanizmlari tadqiq qilindi va O'zbekiston sharoitida qo'llash yuzasidan e'tiborga molik takliflar ishlab chiqildi. Ushbu tajribalar eksport sohasidagi mavjud tendensiyalarni aniqlashda keng qo'llaniladi. Bu borada eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan AQSh, Rossiya, Yaponiya, Hindiston va Xitoy mamlakatlarining tajribalari o'rganildi.

4. Mintaqa eksport salohiyatidan foydalanish xususiyatlari uning hozirgi holatini aks ettiradi. buning uchun mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanish va tahlil qilish talab etiladi. Chunki, eksport salohiyatini rivojlantirish murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida talqin qilinadi. Buni samarali amalga oshirish uchun mintaqalarda eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash lozim.

5. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda eksport salohiyati samaradorligini oshirish eng muhim yo'nalish bo'lib qaraladi. Chunki, eksport faoliyati bevosita korxonalar iqtisodiy faoliyati unsurini aks ettiradi. Uni samarali amalga oshirish tashqi bozordagi raqobatbardoshlik qobiliyati va eksport salohiyatini baholashga asoslanadi. Ushbu soha xo'jalik jarayonlari tizimiga asoslangan murakkab majmua bo'lib ham qaraladi.

6. Mintaqa eksport salohiyatini oshirishga turli omillar ta'sir qiladi. Eksport salohiyatini oshirish davlatning ustuvor yo'nalishi sifatida ajralib turadi. Dissertatsiyada monitoring natijalari bo'yicha korxonalar faoliyati reyting mezonlari asosida quyidagi toifalarga ajratildi:

barqaror (0,8-1,0) - eksport hajmi muntazam o'sib borayotgan, mahsulot sifati yuqori va innovatsiya darajasi kuchli bo'lgan korxonalar;

turgun (0,5-0,7) - eksport ko'rsatkichlari ma'lum barqarorlikka ega, ammo faoliyat samaradorligini oshirish uchun islohotlar talab etiladigan subyektlar;

beqaror (0,1-0,4) - tashqi bozorda raqobatbardoshlik past, mahsulot sifati va texnologiya jihatdan rivojlanishga muhtoj korxonalar.

Ushbu baholash yondashuvi korxonalarining iqtisodiy faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish, tahlil qilish va natijalarni reyting ko'rishida baholash imkonini beradi.

7. Mamlakat eksport salohiyatidan samarali foydalanish muhim o‘rin tutadi. Chunki, bu iqtisodiy o‘shish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishga olib keladi. Bu boradagi choralarni amalga oshirish orqali mamlakat o‘zining eksport salohiyatidan to‘liq foydalanishi va iqtisodiy o‘shishga erishishi mumkin. Har bir mamlakat o‘ziga xos sharoitlardan kelib chiqib, ushbu yo‘nalishlarni moslashtirishi va o‘ziga xos strategiyalar ishlab chiqishi lozim.

8. Eksport salohiyatidan samarali foydalanish uchun eksportni diversifikatsiya qilish lozim. Bu borada mahsulotlar diversifikatsiyasi doirasida faqatgina bir nechta tovarlarga bog‘lanib qolmaslik uchun eksport qilinadigan mahsulotlar assortimentini kengaytirish zarur. Eksport salohiyatidan samarali foydalanish uchun raqobatbardoshlikni oshirish lozim. Buning uchun ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish va marketing va brendingni amalga oshirish talab etiladi.

9. Mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish va eksport salohiyatini oshirishda gravitatsion model muhim amaliy ahamiyatga ega. Bu model hududlar o‘rtasidagi aholi va korxonalar migratsiyasi, ishlab chiqarish oqimlari hamda transport-logistika infratuzilmasi rivojlanishining o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga xizmat qiladi. Uni amalga oshirishga qaratilgan gravitatsion model hududlararo iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, logistika samaradorligini yaxshilash va mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror o‘shishini ta‘minlash uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

10. Iqtisodiyot tarmoqlari eksport salohiyatini taqqoslama baholash uslubiyati iqtisodiyotning turli tarmoqlari (sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish va boshqalar)ning eksport qilish imkoniyatlarini o‘rganish va solishtirishga qaratilgan. Uslubiyatning asosiy maqsadi - eksportni rivojlantirish uchun ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash, resurslarni taqsimlash va eksport siyosatini takomillashtirishdan iborat.

11. Eksport salohiyatidan samarali foydalanishni ekonometrik modellashtirish - bu eksport hajmi va tuzilmasiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqliklarini o‘rganish va kelajakdagi eksport ko‘rsatkichlarini prognoz qilish uchun ekonometrik modellar yordamida tahlil qilish jarayonidir. Eksport salohiyatidan samarali foydalanishni ekonometrik modellashtirish eksportni rivojlantirish siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun vosita hisoblanadi.

12. Mintaqa eksport salohiyatidan samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari – eksport faoliyatini rag‘batlantirish, qo‘llab-quvvatlash va muvofiqlashtirishga qaratilgan o‘zaro bog‘liq tashkiliy tuzilmalar, iqtisodiy vositalar va usullar majmuidir. Bu mexanizmlar mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlari, resurslari va iqtisodiy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

13. YaIM o‘shishiga eksport hajmining ta‘sirini ekonometrik modellashtirish YaIM o‘shishiga eksportning miqdoriy ta‘sirini baholash uchun ekonometrik usullar yordamida model qurish jarayonidir. Shunga asosan, mintaqaning eksport salohiyatidan foydalanish samaradorligini chuqur baholashda Spirman darajali korrelyatsiya koeffitsiyenti (k_s) va Fexner tasodiflar koeffitsiyenti (k_f) ni birlashtirish asosida ishlab chiqilgan model muhim ahamiyatga ega. Bu model eksport jarayonlarining miqdoriy (R_m) va sifatiy (R_q) o‘zgarishlarini bir vaqtning o‘zida aniqlash imkonini beradi.

14. Hisoblab chiqilgan Xorazm viloyati eksport salohiyati ko'rsatkichlarining prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha tashqi savdo aylanmasi keyingi besh yillikda o'rtacha 14,8 foiz o'sish sur'atiga yega bo'lib, 2030-yilda 2026-yilga nisbatan 2 barobarga oshishi ta'minlanadi. Mintaqada eksport hajmi aylanmasi keyingi besh yillikda o'rtacha 10,8 foiz o'sish sur'atiga ega bo'lib, 2030-yilda 2026-yilga nisbatan 1,8 barobarga oshishi ta'minlanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/27.09.2024.I.55.03 ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ**

**УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ АБУ
РАЙХАНА БЕРУНИ**

РАХИМОВ ТУХТАБЕК ЖУМАБАЕВИЧ

**ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ЭФФЕКТИВНОГО
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА В РАЗВИТИИ
РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ**

08.00.06 – Эконометрика и статистика

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (DSc)**

Ургенч – 2025

Тема диссертации на соискание учёной степени доктора экономических наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2025.2.DSc/Iqt839.

Докторская диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.urdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Официальные оппоненты:

Мухитдинов Худояр Суюнович
доктор экономических наук, профессор

Отажонов Умид Абдуллаевич
доктор экономических наук, профессор

Аллаяров Пиратдин Отабоевич
доктор экономических наук, доцент

Ведущая организация:

**Наманганский государственный
технический университет**

Защита диссертации состоится « ____ » _____ 2025 года в ____ : ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/27.09.2024.I.55.03 по присуждению ученых степеней при Ургенчском государственном университете имени Абу Райхана Беруни. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-57-00, e-mail: info@urdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни (зарегистрирована за № ____). Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Алимджана, 14. Тел.: (99862) 224-67-00. e-mail: info@arm.uz

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 года.

(реестр протокола рассылки № ____ от « ____ » _____ 2025 года).

И.С. Абдуллаев
председатель диссертационного
совета по присуждению учёных
степеней, доктор экономических
наук, профессор

Д.Т. Худайбергенов
ученый секретарь научного
совета по присуждению ученых
степеней, DSc, профессор

Б. Рузметов
председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Развитие внешнеэкономических связей в мире является важным фактором всестороннего прогресса национальных экономик. В этом контексте большое внимание уделяется эффективному использованию экспортного потенциала при развитии экономики стран. Это, в свою очередь, требует реализации мер по эффективной организации экспортных отношений и рациональному использованию имеющихся ресурсов и производственного потенциала. Такой подход способствует поддержке производственной сферы, ориентированной на экспорт. В частности, глобальный объём товарного экспорта увеличился на 11 процентов за счёт роста цен на энергоносители и другие виды сырья, достигнув 24 905 млрд долларов США. В составе этого показателя экспорт коммерческих услуг вырос на 16 процентов и составил 7 076 млрд долларов США²⁷. В связи с этим создание эконометрических моделей, обеспечивающих развитие мировой региональной экономики за счёт эффективного использования экспортного потенциала, является актуальной задачей.

В мире уделяется особое внимание производству экспортной продукции. В этом направлении осуществляются соответствующие меры по поддержке и стимулированию экспортного производства, обеспечению его устойчивого роста и совершенствованию методов его использования. В частности, в современных предприятиях эффективно применяются различные методы и инструменты для организации производства конкурентоспособной и качественной экспортной продукции. Для их эффективной реализации научные исследования, направленные на разработку эконометрических моделей рационального использования экспортного потенциала, рассматриваются в качестве приоритетных направлений.

В стратегии развития «Нового Узбекистана» особое внимание уделено эффективному использованию экспортного потенциала и созданию его современных моделей. В частности, в Указе Президента Республики Узбекистан № PF-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» в качестве 28-й цели определено повышение экспортного потенциала республики и доведение объёмов экспорта к 2026 году до 30 млрд долларов США²⁸. Реализация указанных задач приведёт к тому, что повышение экспортного потенциала регионов станет приоритетным направлением в нашей республике. Следовательно, экономическое развитие страны напрямую зависит от роста экспортного потенциала. Посредством выполнения данных мер будут сформированы модели эффективного использования экспортного потенциала в развитии экономики регионов. В этом контексте научное изучение и анализ проблем, связанных с созданием эконометрических моделей, направленных на эффективное использование экспортного потенциала в развитии региональной экономики, является требованием времени.

²⁷ <https://roscongress.org/materials/obzor-statistiki-mirovoy-torgovli-za-2023-god...>

²⁸ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № PF-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы». Источник: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

